

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2024 № 1 (24)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2024 № 1 (24)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Muxamedjanova Lalixon Ashuralievna

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy begonalashuv va uni bartaraf etish yo'llari.....9-16

Nadirova Zoyira Payanovna

Intuitsiya kognitiv tafakkurda qaror qabul qilishimizga ko'maklashuvchi omil sifatida.....17-20

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Tulenova Gulmira Jandarovna

Ta'lim tiziminining samaradorligi va sifatini oshirishning asosiy omillari.....21-29

Abdullayev Temur Bobir o'g'li

Tafakkur uslubi transformatsiyasida ongning falsafiy xususiyatlari30-35

Usmanov Muhridin Abdimuratovich

Idrokning davr va obrazlarni tasavvur qilishdagi roli36-43

TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

O'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalari.....44-50

Xidirov Mustafu Toyirqulovich

Ilmiy maktablarning shakllanishi va ularning ilmiy faoliyatni tashkil etishdagi amaliy ahamiyati51-58

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

Daniel Dennetning ong nazariyasi: keng qamrovli tahlil59-67

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Nishanova Ozoda Djalolitdinovna

Go'zallik kategoriyasi va uning o'zbek etnomadaniyatidagi o'rni68-76

Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna

Vaqtning qiymati – inson umrining eng oliy qadriyati.....77-83

Abdullayev Temur Bobir o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrası

tayanch doktoranti

E-mail: tamuurdo@gmail.com

(Toshkent, O‘zbekiston)

TAFAKKUR USLUBI TRANSFORMATSIYASIDA ONGNING FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada onnga turli falsafiy yondashuvlar tafakkur uslublarining o‘zgarishiga qanday hissa qo‘shishi yoritilgan. Ong falsafasi to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlarni qadimdan bizgacha yetib kelayotgan matnlarda ko‘rish mumkin. Har bir yondashuv odamlarning dunyoni idrok etishi va tafakkur tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan noyob tushuncha va usullarni taqdim etadi. Deyarli barcha falsafiy ta’limotlarda inson ichki olami va uning sir-sinoatlari o‘rganilib kelingan.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, ong, idrok, tafakkur uslubi, paradigma, kognitiv fanlar, sun’iy intellekt.

ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЗНАНИЯ В ТРАНСФОРМАЦИИ СТИЛЯ МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В этой статье исследуется, как различные философские подходы к сознанию способствуют изменению стиля мышления. Первые представления о философии сознания можно увидеть в текстах, дошедших до нас с древних времен. Каждый подход предлагает уникальные идеи и методы, которые могут существенно повлиять на то, как люди воспринимают мир и думают о нем. Внутренний мир человека и его тайны изучались практически во всех философских учениях.

Ключевые слова: мировоззрение, сознание, восприятие, стиль мышления, парадигма, когнитивные науки, искусственный интеллект.

PHILOSOPHICAL FEATURES OF CONSCIOUSNESS IN THE TRANSFORMATION OF THINKING STYLES

Annotation. This article explores how different philosophical approaches to consciousness contribute to changes in thinking styles. The first ideas about the philosophy of consciousness can be seen in texts that have come down to us from ancient times. Each approach offers unique ideas and methods that can

significantly influence the way people perceive and think about the world. The inner world of man and its secrets have been studied in almost all philosophical teachings.

Key words: worldview, consciousness, perception, thinking style, paradigm, cognitive science, artificial intelligence.

KIRISH

Tafakkur uslubi transformatsiyasida kishilar idrok etishi va bilishi uchun foydalanadigan usullar, tamoyillar va yondashuvlarning sezilarli o'zgarishini nazarda tutadi. Ushbu transformatsiya shaxsiy fikrlash jarayonlariga ta'sir qiladigan individual darajada yoki jamoaviy intellektual paradigmalariga ta'sir qiladigan kengroq miqyosda sodir bo'lishi mumkin. Ong jismoniy tana bilan ayniy emas, u intellekt va tanadan ko'ra mutlaqo o'zgacha substansional xarakterga egadir. Ushbu falsafiy an'ana doirasida bilimlarimizning aprior xarakterga ega ekani inkor etiladi. Ular qalbdagi, yoki jonda tizimlashtiriluvchi va saqlanuvchi o'tmish va hozirgi kunga oid tajribalarimizning natijasidir. Q. Abduraximovning fikricha, «Ong dunyoni aks ettirish konstruksiyalash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ong yaxlit fenomen sifatida mavjud, biroq ongning yagonaligi shartlidir. U har doim unga xalaqit berishi yoki uning bir qismini bostirishi mumkin bo'lgan narsalardan chetlashib, biror narsada to'planishiga qodir bo'ladi» [Абдурахимов Қ. 2015 йил. –Б.67]. F. Sherbatskoy esa «Ong sof tabiatga egadir. Unda hech qanday obrazlar bo'lmaydi, u tashqi voqelikni o'z bilim nuri bilan yoritmaydi. Ongda faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan narsalar aks etishi mumkin» [Щербатской, Ф.И. 1988: – С.77] ekanligi ta'kidlagan.

MATERIALLAR VA METODLAR

Bugungi kundagi ong falsafasi bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik faylasuflar fikrlash tarzi uchun ham skeptitsizm qaysidir darajada xos deyish mumkin. Ongning tadqiq etilishining naqadar muhim ekanini iloji boricha aniq-ravshan bayon etishga intilib, ular ko'p hollarda uni anglashning mumkin ekaniga umuman shubha bildirishadi. «Skeptiklarning fikricha, ko'pchilik kishilarning aksariyat narsalarni bir xilda idrok qilishlari bilan kelishishlari bu epistemologik masalalarni hal qilmaydi» [Скирбекк, Г., Гилье, Н. 2002. – Б.180].

Bizning fikrimizcha, ong mavzusining dolzarbligini pasaytirmagan holda, muammoga nisbatan biroz optimistik ruhda yondashish, inson ongi va mohiyatini muqobilroq tarzda aks ettirish muhimdir.

Ijtimoiy inqirozlar davrida yashagan epikurchlar inson ongini predmetli sifatida ko'rib, iste'molga yo'nalgan hayot tarzida u o'sib-rivojlanadi, deb talqin qilishgan. Ularning fikricha, inson muttasil qo'rquv ostida yashay olmaydi va tashqi muhitda sodir bo'layotgan dahshatlarga javoban oddiy kundalik turmushdan keskin farq qiluvchi qandaydir bexavotir, beparvo, sokin turmush ideali maydonga chiqadi. Bunday vaziyatlarda inson ongi olamda mavjud va amal qilinishi kerak bo'lgan qandaydir yashirin tartibotni ko'radi. Borliqning umumiy qonuniyatlarini izlash keyingi asrlarda ham to'xtamadi. Shu sababli endilikda, o'rta asrlarda inson

tafakkuridagi bilish qobiliyatiga nisbatan qiziqish shakllana boshlagan. Shu jihatdan olib qaraganda, oʻrta asrlar falsafasida ong muammosi diniy dogmalar nuqtai nazaridan ochib berilgan. Bunda tafakkur qilish uchun boshlanish nuqtasi sifatida xudo tomonidan insonning oʻz qiyofasi va shaklida yaratilishi toʻgʻrisidagi tezis xizmat qildi. Sxolastik falsafa diqqat markazida insonning ichki kechinmalari birinchi darajali ahamiyat kasb etgan. Xususan, bu jarayonda inson oʻzligini tahlil qilishida axloqiy jihatdan shaxsiy masʼuliyat talab qilardi. Shu sababli ham oʻrta asrlarda ong nafaqat tashqi olam haqidagi, balki insonning ichki olami haqidagi ham bilimlarni oʻzida jamlashi toʻgʻrisida tasavvurlar shakllandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oʻrta asrlar falsafasida inson ongiga nisbatan oʻziga xos tushuncha shakllangan edi. Oʻz ichki kechinmalarini tahlil qilish insonga oʻzligini anglashga imkon berishi toʻgʻrisida fikr ilgari surilgan. Sxolastlar fikricha, inson ongi ijodiy ibtidoaga ega boʻlmagan. Aksincha, u inson uchun salbiy ahamiyatga ega boʻlgan, uning gunohkor tabiatining namunasi boʻlgan. Oʻrta asr maʼnaviy-ruhiy anʼanasiga koʻra, aql-idrok va irodaning oʻzaro notengligi toʻgʻrisidagi gʻoya yaqqol koʻzga tashlanib turar edi. Fikrimizcha, oʻrta asr mutafakkirlarining ong haqidagi fikrlarining biz uchun qiymati ham shunda namoyon boʻladi. Keyingi davrlarda insonni uning ongi bilan ayniylashtirishga nisbatan urinishlar sodir etiladi. Qadimgi va oʻrta asrlar falsafasida deyarli barcha zamonaviy fan sohalariga oid qarashlarni uchratish mumkin. Ong falsafasi sohasi ham bundan istisno emas va Sharq hamda Gʻarbning deyarli barcha falsafiy taʼlimotlarida ushbu sohaga oid fikrlar bildirilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu davr bilimlarining oʻziga xos jihati bu ushbu bilimlarning yaxlitligi va sakral ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi.

Tahlilimizcha, ochiq va yashirin holda qadimgi matnlardan oʻrin olgan ong haqidagi qarashlar biz uchun ulkan manbadir. Bu vaziyatning mushkul tomoni shundaki, bu bilimlarni shunchaki “mexanik” tarzda zamonaviy fan tiliga oʻgirish imkonsiz, zero oʻtgan asrlar va mingyilliklar ichida insonlarning fikrlash tarzlari va tafakkurlari, tushunchalar apparati, ular qoʻllaydigan metodologiya, ular oldilariga qoʻyadigan vazifalar va tadqiqot maqsadlari tub oʻzgarishlarga uchradi.

Yangi davr falsafiy anʼanalarida onglilik inson mavjudligining eng muhim mezonlaridan biri sifatida koʻrilgan. Keyingi davrlarda ushbu tadqiqotlar yanada kengroq koʻlamda olib borildi. Lekin, keyinchalik maʼlum boʻldiki, ongni tadqiq etish vazifasi oʻziga xos bilish metodlarini qoʻllashni talab qiladi va u oddiy tadqiqot predmeti boʻlishi mumkin emas. Shu sababli ham falsafa doirasida uni tadqiq etishga nisbatan turli-tuman yondashuvlar shakllandi.

Inson ongini tadqiq etishning muqobil metod va uslublarini izlash falsafada bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Bunda tadqiqotlardagi eng muhim bosqich – bu ong tushunchasiga ilmiy taʼrif berish hisoblanadi. N.Jukov fikricha: «Ong – bu ijtimoiy taraqqiyot, hamda inson mehnat faoliyati sharoitlarining mahsulidir» [Жуков Н. 1987. – С.71]. Aynan shu mavzu boʻyicha ham falsafada, ham boshqa xususiy fanlar doirasida qiziqarli va foydali manbalar mavjud. Nazariy asoslanganlik nuqtai nazaridan, ongning mohiyati masalasini hal etishda

materialistik monizm ham, idealistik monizm ham teng mavqega ega va bunda asosan faylasufning dunyoqarashi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur.

Ilmiy va falsafiy paradigmalar orasida tanlov amalga oshirish tanlovchining dunyoqarashiga bog'liq bo'lmay, balki tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tahlil qilinadi. Yuqorida keltirilgan har ikkaga g'oya ham bir-birini to'ldiruvchi dunyoqarash pozitsiyalari sifatida e'tirof qilish mumkin. Bunda ayniqsa muhimi shundaki, unda materializm va idealizm orasidagi farq – bu ulardan birinchisi olamning asosiga materiyani, ikkinchisi esa g'oyani qo'yishida emas. V.Petrov aytganidek, ularning orasidagi asosiy farq – bu ularning olamni anglash vositasi sifatidagi mushohadaga nisbatan munosabatlaridadir. Shuningdek, A.Shopengauer, K.Yaspers va boshqa faylasuflar ta'kidlab o'tganidek, materializm da inson bilishda obyekt dan subyekt ga tomon harakat lansa, idealizm da esa subyekt dan obyekt ga tomon harakat lanadi. Fikrimizcha, ushbu bir-biriga tubdan zid bo'lgan ikki yondashuvda muammoga nisbatan tolerant larcha yondashish tamoyili yetishmaydi. Bunday dixotomik dunyoqarash sodir bo'layotgan hodisa va voqealarning mohiyatini anglash imkonini bermaydi. Shu ma'noda olam va ong – bu bir-biriga qarshi turuvchi ikki hodisa emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, yaxlit bir mavjudlikdir. O.Suvarov fikricha: «Ong – bu insonning tashqi muhitni xotirada aks ettirib, uning qonuniyatlarini tahlil qilish va o'sha muhitda insonning o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini ko'z oldiga keltira olish qobiliyatidir». [Суворов О. 1999. – С.22]. Shuningdek, V.Flippov yozishicha: «Ong – bu inson miyasi mahsuli, ijtimoiy taraqqiyot natijasi va moddiy olamning o'ziga xos namoyon bo'lish shaklidir» [Филиппов В. 1997. – С.255]. Yuqorida keltirilgan ta'riflar falsafada uni tadqiq etishga nisbatan turli-tuman yondashuvlarning mavjudligidan dalolat beradi. Bilish predmeti sifatidagi ong boshqa predmetlarga tegishli bo'lmagan bir necha o'ziga xos jihatlarga egadir. Mohiyatan, bu yerda biz bevosita mavjud bo'lgan voqelikni turli vositalar bilan, bilvosita anglashga harakat qilamiz.

XIX asr oxirida taniqli ingliz faylasufi Tomas Haksli onging mohiyati doimo ilm-fan uchun tilsimligicha qoladi, degan fikrni bildirgan. Inson ongi – bu o'ta murakkab va ko'p jihatli hodisa bo'lib, uni muayyan konseptual sxema bilan qamrab olish imkonsizdir. Amerikalik faylasuflardan biri T.Nagel fikricha, umumiy bilish nazariyasini yaratishning imkonsizligini aytadi va buning sababi sifatida inson bilish qobiliyatini tadqiq etish metodologiyasining nuqsonli ekanini ko'rsatadi. T.Nagel fikricha: «Inson ongi, ruhi va miyasi orasidagi o'zaro aloqalarni tushuntiruvchi nazariyani izlash davom etadi, garchi bu nazariyaning mavjud bo'lishi imkonsiz bo'lsada, baribir bu munosabatni tushuntirish, izohlash talab qilinadi» [Нагель Т. 2002. – С.106]. Shu jihatdan olib qaraganda, har bir davr ushbu muammoga nisbatan yangidan yangi yechimlar bermoqda. Jumladan, ingliz faylasuflaridan biri S.Prist tomonidan dunyo falsafiy adabiyotida mavjud bo'lgan barcha onga oid konsepsiyalarini tasniflab chiqqanligini ta'kidlash zarur. S.Prist fikricha: «faqatgina jismoniy sifatlarga ega bo'lgan obyekt nigina ilm-fan muvaffaqiyat bilan tushuntirib, izohlab berishi mumkin». [Прист С. Теории

сознания. 2000. – С.7]. Bizning fikrimizcha, ongning tadqiq etilishi davomida yuzaga keladigan ziddiyatlar subyektning bir paytning o'zida dunyoni ham jismoniy, ham ruhiy olam tushunchalari bilan ifodalashga urinishi sabablidir.

Zamonaviy davrda ongni tushunish va o'rganish sohasida ko'plab yangi yondashuvlar va nazariyalar paydo bo'ldi. Bu tushunchalar kognitiv fanlar, nevrologiya, sun'iy intellekt, va falsafaning yangi yo'nalishlari orqali rivojlanmoqda.

Kognitiv fanlar ongni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Kognitiv fanlar insonning fikrlash, idrok, xotira, qaror qabul qilish kabi jarayonlarini tahlil qiladi. Bu jarayonlar ongning turli aspektlarini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv fanlar orqali olimlar ongning tuzilishi va faoliyatini, shuningdek, uning qanday ishlashini tadqiq qilishadi. Nevrologiya ongning biologik asoslarini o'rganadi. Miya faoliyatini kuzatish va tahlil qilish orqali nevrologlar ongning qanday shakllanishi va ishlashini aniqlashga harakat qiladilar. Miya faoliyatining turli qismlarini o'rganish orqali nevrologlar ong va uning turli jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga urinadilar. Masalan, miya skanerlari va boshqa ilmiy usullar yordamida turli fikrlash jarayonlari va hissiyotlar miya faoliyatining qaysi qismlariga bog'liqligi aniqlanmoqda. Shuningdek, Sun'iy intellekt sohasida ham ongni tushunish va modellashtirish muhim masalalardan biridir. Sun'iy intellekt orqali inson ongini va uning turli jarayonlarini simulyatsiya qilish va modellashtirishga urinishlar mavjud. Sun'iy neyron tarmoqlari va mashina algoritmlari yordamida olimlar inson ongining turli jihatlarini tushunish va ularga o'xshash tizimlar yaratishga intilmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt tibbiyotda tashxis qo'yishda, operatsiya, transplantatsiya jarayonlarida, kinoda ssenariylar yozishda, musiqa va qo'shiq yozishda faol ishlamoqda. Qo'yingki sun'iy intellect yetib bormagan soh ava tarmoq qolmadi. Bizning fikrimizcha, sun'iy intellektning rivojlanishi ongning funksionalistik yondashuviga asoslanadi. Funksionalistik yondashuvga ko'ra, ong – bu ma'lumotlarni qayta ishlash, qarorlar qabul qilish, xotira va idrok kabi jarayonlarni amalga oshiradigan tizimdir. Sun'iy intellekt orqali bu jarayonlarni modellashtirish va turli muammolarni hal qilishda qo'llash mumkin.

XULOSA

Sun'iy intellekt va neyrotarmoqlarning fanga kirib kelishi natijasida ong va tafakkur o'zgarishga uchradi. Ushbu transformatsiya ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin va yangi fikrlash usullari, yangi imkoniyatlar yoki yangi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bu, shuningdek, kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabati, jumladan, ular qanday muloqot qilishlari, hamkorlik qilishlari va innovatsiyalar qilishlarida o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

BIBLIOGRAFIYA

1. Щербатской Ф.И. Избранные труды по буддизму. – М.: 1988. – С. 77.
2. Скирбекк, Г., Гилье, Н. Фалсафа тарихи: Олий ўқув юрт. учун ўқув кўлл. / Рус тилидан тарж.: В.Кузнецов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.180.

3. Абдурахимов Қ. Онглилик ва онгсизлик: ўзаро алоқадорлик психологияси. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2015 йил. –200 б.
4. Жуков Н.И. Проблема сознания: Философские и специально-научные аспекты. – Минск: 1987. – С.71.
5. Суворов О.В. Сознание и абсолют. – М.: 1999. – С. 22.
6. Филиппов В.Н. Человек в концепции современного научного познания. – Барнаул: 1997. – С. 255.
7. Нагель Т. Мыслимость невозможного и проблема духа и тела // Вопросы философии. – М.: 2002. – № 8. – С. 106.

**FALSAFA VA HAYOT//
ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ//
PHILOSOPHY AND LIFE**

Tahririyat manzili	Адрес редакции	Editors Address
100085, O'zbekiston Toshkent, Sergeli tumani, Mehrighiyo ko'chasi -6	100085, Узбекистан, Ташкент Сергелинский район, Улица Мехригиё- 6	100085, Uzbekistan Tashkent Sergeli, Mehrighiyo street-6

Veb-sayt: <http://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2018/03/01/03pdf>
www.tadqiqot.uz ; E-mail: falsafa-h@mail.ru, Shermuhamedova_n@mail.ru
Telefon: (+99890) 358-62-70

MUASSISLAR:	УЧРЕДИТЕЛИ:	FOUNDERS:
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot	Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Международный научно- исследовательский центр Имом ал Бухори при кабинете Министров Республики Узбекистан Философское общество Узбекистана OOO tadqiqot	The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek International Research Center Imom al Bukhori at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

Tahririyat sifatli maqolalarni tanlash huquqini saqlagan holda taqdim etilayotgan materiallarning aniqligiga javob bermaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Редакция оставляет за собой право отбора качественных статей и не несет ответственности за достоверность информации в представленных материалах.

The editors reserve the right to select quality articles and is not responsible for the reliability of the information in the submissions.

Подписано для сайта
Тошкент шаҳри

Заказ №.